

# I bo'lim. O'zbekiston – mening Vatanim

1-2-darslar

## BIZ – O'ZBEKISTON FUQAROLARIMIZ



Vatanimizning go'zal tabiatni, purviqor tog'lari, vodiylari, daryo va ko'llari bor. Yurtimiz shaharlari chiroyli, qishloqlari so'lim, mahallalari ahil va obod.

O'zbekiston – boy madaniyat va ko'p asrlik an'analar yurti. Nafaqat tarixiy, balki aniq maqsadlar va dadil qadamlar bilan kelajakka intilgan zamonaviy mamlakatdir.

O'zbekiston – zamondoshlarimiz, qo'ni-qo'shnilar va do'stlarimiz, oilamiz va qarindosh-urug'larimizdir.





O'zbekiston 1992-yilda Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani imzoladi. Unda butun dunyodagi bolalarning tug'ilganidan voyaga yetgunga qadar bo'lgan huquqlari bayon etilgan. Bu huquqlar bolalarning hayoti va salomatligi, barcha bolalar baxtiyor ulg'ayishi va har tomonlama rivojlanishi uchun muhimdir.

**Oilada ota-onasi bilan yashash**

**Ta'lif olish**

**Yashash huquqi**

**Dam olish**

**Tibbiy xizmatdan foydalanish**

**Shaxsiy daxlsizlik**



## Bolalarning huquqlari

**So'z va vijdon erkinligi**

**O'z fikriga ega bo'lish**

Bolalarning Konvensiyada yozilgan huquqlari ularning **shaxsiy huquqlari** hisoblanadi. Siz ulg'ayganingiz sari atrofingizdagi olam tobora kengayib, rang-barang bo'lib boradi. Shuningdek, davlat va jamiyat hayoti qanday tashkil etilishini tushuna boshlaysiz. Ulg'aygach, **fuqarolik huquqlariga** ham ega bo'lasiz. Buni siz jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etasiz, jamiyat va davlatdagi o'zingizga tegishli voqeа-hodisalarga ta'sir ko'rsata olasiz, deb tushunish kerak.



**Kichik guruhlarda muhokama qilib, savollarga javob bering.**

1. Siz qanday huquqlarga egasiz?
2. Siz qaysi huquqlardan foydalanyapsiz?



Jamoada hamda jamiyatda o'zaro hamjihatlik bo'lishi uchun, biz nafaqat o'z huquqlarimizni bilishimiz kerak. Shu bilan birga inson bir qator burchlarini ham bajarishi lozim. Buni yoshlik chog'imizdanoq tushunishimiz kerak.

Oila va maktab – hayotingizning ilk davridan sizni bag'riga oladigan asosiy jamoalardir. Aynan ularda jamiyatdagi o'zaro munosabatlar haqida ilk amaliy ko'nikmalarga ega bo'lasiz.

### Fuqaroning asosiy burchlari

**Boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish**

**Farzandlarini tarbiyalash va ularga g'amxo'rlik qilish**



**O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga amal qilish**

**Vatanni himoya qilish**

**Tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish**

**Tarixiy va madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash**



**Davlatimizning asosiy qonunida fuqarolarning huquq va burchlari aniq belgilab qo'yilgan. Davlat ham ana shu qonun asosida boshqariladi. Bu qonun Konstitutsiya deb ataladi.**



**Kichik guruhlarda muhokama qilib, savollarga javob bering.**

1. Sizning qanday burchlaringiz bor?
2. Ularni nima uchun bajarish kerak?